



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATION

МИНИСТРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН



JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

JIZZAKH POLYTECHNIC INSTITUTE

ДЖИЗАКСКИЙ
ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ



**“YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA TILLARNI O‘RGANISHNING
ZAMONAVIY TENDENSIYALARI”**

Mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

Республиканская научно-практическая конференция на тему:
**«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В
СТРОИТЕЛЬСТВЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА»**

**“MODERN TRENDS IN LANGUAGE LEARNING IN THE FORMATION
OF A NEW UZBEKISTAN”**

Republic scientific- practical conference

18-aprel, 2025 yil

www.jizpi.uz

**O‘ZBEK ISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

JIZZAX POLITEKNIKA INSTITUTI

**“YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA TILLARNI
O‘RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI”**

mavzusidagi

respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

республиканская научно-практическая конференция на тему:

**«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ
ЯЗЫКАМ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА»**

Republican scientific and practical conference on
**“MODERN TRENDS IN LANGUAGE LEARNING IN THE
CONSTRUCTION OF A NEW UZBEKISTAN”**

**KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO‘PLAMI
(II-TOM)**

(Jizzax shahri, 18-aprel 2025-yil)

JIZZAX-2025

	AHAMIIYATI. Dushabayev Abdulla Musaevich	
50	AUGMENTED AND VIRTUAL REALITY (AR/VR) IN ENGLISH EDUCATION. Do'sboyeva Zarnigor Bakirovna	201
51	MUHANDIS TALABALARNING YOZMA NUTQIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI Ergasheva Feruza Avasxonovna	204
52	TALABLARDA XORIJIY TILNI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATSION YONDASHUV VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA. Ergasheva Feruza Avasxonovna, Rahmatov Mirjalol Hoshim o'g'li	207
53	KOMMUNIKATIV-KOGNITIV YONDASHUV DOIRASIDA QURILISH MUHANDISLIGI TALABALARINING INGLIZ TILI LEKSIK-GRAMMATIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH. Ergasheva Feruza Avasxonovna, Abdusaidov Doniyor	210
54	BO'G'USI MUHANDIS TALABALAR NUTQIDA GRAMMATIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING KOGNITIV YONDASHUVI. Ergasheva Feruza Avasxonovna, Qodirova Gulsanam Ikrom qizi	214
55	THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON LANGUAGE TEACHING Kalimbetova Khurliman Islambek qizi	217
56	TALABALARNINGTILKO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA IJODIY YOZUVNING O'RNI. Karaboshev Bahrom Keldiyorovich	220
57	FRAZOLOGIK BIRLIKLAR VA POLISEMIYANING SHAKLLANISH OMILLARI. Karaboshev Bahrom Keldiyorovich	224
58	ENHANCING EDUCATIONAL TRANSPARENCY AND MANAGEABILITY THROUGH CLOUD-BASED LMS SOLUTIONS. Kavilova Laura	228
59	NAVIGATING LANGUAGE STREAMS IN CONTEMPORARY URBAN SOCIOLINGUISTICS. Kavilova Tamara	233
60	CHARTING LINGUISTIC CROSSCURRENTS IN TODAY'S EVOLVING SOCIOLINGUISTIC LANDSCAPE. Kavilova Tamara	237
61	SCIENTIFIC-THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF TRANSLATING ENGLISH RAILWAY TERMS INTO UZBEK. Kurbanova Ilmira Sharifovna	240
62	YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARINING INGLIZ TILINI O'RGANISHGA BO'LGAN ISHTIYOQI VA IMKONIYATLARI. Kenjaboev Shokir Abduhalimovich	244
63	THE ROLE OF SEMANTIC AND MORPHOLOGIC CHANGES IN CREATION OF AVIATION TERMINOLOGY IN THE ASPECT OF TRANSLATION. Kushakov Yusup Xaytbayevich, Abduvakhobov Xusniddin Abdumanop Ugli	248
64	DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF ENERGY ENGINEERS WITH THE HELP OF FOREIGN LANGUAGES. Khoshimov Muslimbek Muzaffar ugli, Muminova Yulduz Gulom kizi, Mamarizaeva Farangiz Zohidjon kizi	253

3. Chen, C. M., & Wang, H. P. (2015). The effectiveness of incorporating AR technology into English vocabulary learning. *Educational Technology & Society*, 18(2), 115-127.
4. Dede, C. (2009). Immersive interfaces for engagement and learning. *Science*, 323(5910), 66-69.
5. Lan, Y. J. (2020). Immersion, interaction, and experience-oriented learning: Bringing virtual reality into an EFL classroom. *Computer Assisted Language Learning*, 33(7), 665-691.
6. Merchant, Z., Goetz, E. T., Cifuentes, L., Keeney-Kennicutt, W., & Davis, T. J. (2014). Effectiveness of virtual reality-based instruction on students' learning outcomes: A meta-analysis. *Computers & Education*, 70, 29-40.
7. Slater, M., & Sanchez-Vives, M. V. (2016). Enhancing our lives with immersive virtual reality. *Frontiers in Robotics and AI*, 3, 74.

MUHANDIS TALABALARNING YOZMA NUTQIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI

**Ergasheva Feruza Avasxonovna,
JizPI O'zbek va xorijiy tillar kafedراس
katta o'qituvchisi, Jizzax vil., Jizzax sh.
feruzaergasheva79@gmail.com**

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lg'usi muhandis talabalar yozma nutq kompetensiyasini takomillashtirishning strategiyalari, pedagogik aspektlari, kompetensiya turlari yoritilgan bo'lib, ingliz tili darslarida kasbiy nutq kompetensiyasini takomillashtirish ahamiyati tushuntirilgan. Maqolada talabalar yozma nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishning samarali usullari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, nutq, muhandis, yondashuv, kritik, kommunikativ.

Hozirgi rivojlangan dunyoda ta'lim sohasini zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga moslashtirish, xorijiy tillarni o'rgatishda innovasion o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha katta tajriba to'plandi. Ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikaniya texnologiyalari, xorijiy tajribalar tatbiq qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning barcha bosqichlarida, shu jumladan oliy o'quv yurtlarida bo'lg'usi muhandis talabalarga xorijiy tilni o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga

oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat.

Muhandislik ta'limi bugungi kunda nafaqat texnik bilimlarni, balki muloqot va yozma nutqiy kompetensiyalarni ham rivojlantirishni talab etadi. Yozma nutqiy kompetensiya – bu insonning o'z fikrini yozma ravishda aniq, ravon va mantiqan to'g'ri ifodalash qobiliyatidir. Bu kompetensiya muhandislar uchun, ayniqsa, texnik hisobotlar, loyiha hujjatlari va ilmiy maqolalar yozishda katta ahamiyatga ega. Yozma nutqiy kompetensiya muhandis talabalari uchun o'z fikrlarini ilmiy va texnik til orqali tushunarli tarzda bayon etish imkoniyatini beradi. Bu kompetensiya talabalar uchun muhandislik sohasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, loyihalar yozish va xalqaro konferensiyalarda ishtirok etishda zarur. Muhandislar, shuningdek, texnik hujjatlarni tuzishda, mijozlar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilishda yozma nutqiy qobiliyatlardan foydalangan holda muvaffaqiyatga erishadilar.

Muhandis talabalarining yozma nutqiy kompetensiyasini takomillashtirishning asosiy strategiyalari:

Yozma nutqiy kompetensiyani oshirishning eng samarali yo'li muntazam yozishdir. Muhandis talabalarini texnik va ilmiy yozuvlarni doimiy ravishda yozish orqali o'z kompetensiyalarini rivojlantirishi mumkin. Shuningdek, yozma ishlashda mantiqiy tuzilma va ravonlikni e'tiborga olish zarur. Yozma ishlarda to'g'ri grammatika va imlo qoidasiga rioya qilish ham muhim ahamiyatga ega.

Yozma nutqiy kompetensiyani oshirishda tahliliy fikrlashni rivojlantirish juda muhimdir. Talabalar o'z yozmalarida texnik muammolarni tahlil qilish va ularni aniq, izchil ravishda ifodalashni o'rganishlari kerak. Bu, o'z navbatida, muhandislik texnologiyalarini tushunishni va ularga nisbatan fikr bildirishni osonlashtiradi.

Muhandislik sohasining har bir tarmog'ining o'ziga xos terminologiyasi va stilistikasiga ega. Talabalar uchun soha tilini o'rganish va uni yozma ishlarida to'g'ri qo'llash juda muhimdir. Masalan, elektronika, mashinasozlik yoki qurilish muhandisligi sohalarida ishlatiladigan maxsus atamalarni bilish va tushunish, yozma nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida boshqalarning yozmalarini tahlil qilish ham juda foydalidir. Talabalar boshqa muhandislarning texnik hisobotlarini, ilmiy maqolalarini va loyihalarini o'rganib, yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishlari mumkin. Bu usul, shuningdek, o'z yozish stilini yaratish va yaxshilashda ham yordam beradi.

Yozma ishlarining sifatini oshirish uchun, talabalar o'z yozmalarini tahlil qilish va baholashni o'rganishlari kerak. Yozilgan matnlarni tanqidiy tahlil qilish, noto'g'ri ifodalangan fikrlarni tuzatish, ortiqcha yoki haddan tashqari murakkab iboralarni soddalashtirish yozma nutqiy kompetensiyani yaxshilashga yordam beradi.

Yozma nutqiy kompetensiyani oshirish uchun guruhda ishlash va yozma ishlarni birgalikda muhokama qilish ham samarali usullardan biridir. Guruhdagi hamkasblar bilan fikr almashish, bir-birining yozmalarini o'qish va fikr bildirish orqali talaba o'z yozma nutqiy qobiliyatini yanada yaxshilaydi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda bo'lg'usi muhandis talabalari uchun yozma nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat ta'lim jarayonida, balki kelajakdagi professional faoliyatda ham muhim ahamiyatga ega. Yozma nutqiy kompetensiyani takomillashtirish uchun o'qituvchilar va talabalar birgalikda samarali strategiyalarni amalga oshirishi kerak. Yozma nutqiy kompetensiya nafaqat texnik bilimlarni ifodalashda, balki xalqaro ilmiy jamiyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishda ham asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun, muhandislik ta'limida yozma nutqiy kompetensiyani rivojlantirish strategiyalariga alohida e'tibor qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aldohon, H. I. (2014). English for specific purposes (ESP) for Jordanian workplace: Needs and problems. *International Education Studies*, 7(11), 56–67.
2. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. O'qituvchi -2012. 79-118 bb.
3. Ergasheva Feruza Avaxxonovna. (2024). Grammatical interference in students' speech in language learning. *Academia Repository*, 5(1), 226–232.
4. Ergasheva F., Qarshiboyev S. Talabalarning kasbiy lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish. //Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. – 2024. – C. 128-131.
5. Yusupalieva S. Developing Students Communicative Competence using Authentic Materials with Information Technologies //International Journal of Industrial Engineering, Technology & Operations Management. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 59-62.
6. Irgasheva, U. R. (2021). IMPROVING STUDENTS' PROFESSIONAL SPEECH COMPETENCE BASED ON STEAM TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH AT TECHNICAL UNIVERSITIES. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 81-87.